

ASOSIY SOTSIOLOGIK PARADIKMALAR**Mirzoidova Anora Mirshohid qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

"Sotsiologiya yo‘nalishi" 1- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539775>

Annotatsiya. Ushbu maqola sotsiologyaning asosiy paradigmalari – struktural funksionalizm, konflikt nazariyasi va simvolik interaksionizmni tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Paradigmalar sotsiologyaning nazariy asosi sifatida jamiyatni turli darajada tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Struktural funksionalizm jamiyatni barqaror tizim sifatida ko‘rib, ijtimoiy institutlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi. Konflikt nazariyasi ijtimoiy tengsizlik va mojarolarni tadqiq etishga qaratilgan bo‘lsa, simvolik interaksionizm odamlar o‘rtasidagi muloqot orqali jamiyatning shakllanish jarayonini o‘rganadi.

Maqolada har bir paradigmning nazariy asoslari, ularning ijtimoiy hayotni tushunishdagi o‘rni va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Ushbu tahlil paradigmalarning jamiyatni kompleks tizim sifatida tushunishda qanday imkoniyatlar yaratishini yoritadi. Maqola sotsiologiya faniga oid nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sotsiologik paradigmalar, struktural funksionalizm, konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm, jamiyat tahlili, makrosotsiologiya, mikrosotsiologiya, ijtimoiy tengsizlik.

MAIN SOCIOLOGICAL PARADIGMS

Abstract. This article is devoted to the analysis of the main paradigms of sociology - structural functionalism, conflict theory and symbolic interactionism. Paradigms are important in analyzing society at various levels as the theoretical basis of sociology. Structural functionalism views society as a stable system and analyzes the interdependence of social institutions. Conflict theory focuses on the study of social inequality and conflicts, while symbolic interactionism studies the process of society formation through communication between people.

The article shows the theoretical foundations of each paradigm, their role in understanding social life and their practical significance. This analysis highlights the opportunities that paradigms create in understanding society as a complex system. The article serves to deepen theoretical knowledge of the discipline of sociology.

Keywords: Sociological paradigms, structural functionalism, conflict theory, symbolic interactionism, analysis of society, macrosociology, microsociology, social inequality.

ОСНОВНЫЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ

Аннотация. Статья посвящена анализу основных парадигм социологии – структурного функционализма, теории конфликта и символического интеракционизма.

Парадигмы играют важную роль в анализе общества на разных уровнях как

теоретическая основа социологии. Структурный функционализм рассматривает общество как стабильную систему и анализирует взаимозависимость социальных институтов. Теория конфликта фокусируется на изучении социального неравенства и конфликтов, тогда как символический интеракционизм изучает процесс формирования общества посредством общения между людьми.

В статье показаны теоретические основы каждой парадигмы, их роль в понимании социальной жизни и практическое значение. Этот анализ проливает свет на то, как парадигмы позволяют нам понять общество как сложную систему. Статья служит углублению теоретических знаний по социологии.

Ключевые слова: Социологические парадигмы, структурный функционализм, теория конфликта, символический интеракционизм, социальный анализ, макросоциология, микросоциология, социальное неравенство.

Kirish. Jamiyatni tushunish va uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishda sotsiologiya fanida turli yondashuvlar shakllangan. Ushbu yondashuvlar “paradigmalar” deb ataladi.

Paradigma – bu muayyan fan doirasida mavjud bo‘lgan asosiy nazariyalar, tushunchalar va uslubiy yondashuvlar majmuasidir. Sotsiologiyada asosiy paradigmalar sifatida struktural funksionalizm, konflikt nazariyasi va simvolik interaksionizm paradigmaları ajratiladi. Ushbu paradigmalarining har biri jamiyatni o‘ziga xos usulda tahlil qiladi va tadqiqotchilarga turli jihatlarni yoritishda yordam beradi. Mazkur maqolada asosiy sotsiologik paradigmalar tahlil qilinadi, ularning nazariy asosi va jamiyatni tushunishda qo‘llanishi yoritiladi.

Sotsiologik paradigmalarining mohiyati va ahamiyati. Sotsiologik paradigmalar – bu jamiyatni tushuntirish va tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan nazariy tizimlardir. Paradigma muayyan davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan asosiy yondashuv va tushunchalar yig‘indisi hisoblanadi.

Sotsiologiyada bu tushuncha jamiyatni o‘rganishning turli xil usullarini ifoda etadi va har bir paragma o‘ziga xos nazariy asoslarga ega. Paradigmalar jamiyatni o‘rganishda ikki asosiy yo‘nalishni belgilaydi:

Makrosotsiologik yondashuv – jamiyatning keng qamrovli strukturalarini (institutlar, tizimlar, sinflar) tahlil qilish.

Mikrosotsiologik yondashuv – odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va kundalik hayotdagi xatti-harakatlarni o‘rganish.

Ushbu paradigmalarining har biri jamiyatni turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Paradigmalar ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularga yechim topishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Struktural funksionalizm paradigmasi. Struktural funksionalizm paradigmasi jamiyatni tizimli va barqaror bir butun sifatida ko‘radi. Paradigma asosida har bir ijtimoiy institutning o‘z funksiyasi mavjudligi va bu funksiyalar jamiyat barqarorligiga xizmat qilishi yotadi.

Asosiy tushunchalar: Ijtimoiy institutlar (masalan, oila, ta’lim, din) jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir elementning maqsadi – jamiyatni muvozanatda ushlab turish.

Ilmiy asoslari: Emile Dyurkgeym jamiyatni tirik organizmga qiyoslagan va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda institutlarning ahamiyatini ko‘rsatgan. Masalan, ta’lim tizimi nafaqat bilim beradi, balki jamiyatning umumiy qadriyatlarini shakllantiradi.

ammo ijtimoiy tengsizlik va mojaro sabablarini kamroq o‘rganganligi sababli tanqidga uchraydi. Talcott Parsons jamiyatdagi tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, ular o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajargandagina jamiyat barqaror bo‘lishini ta’kidlagan. Bu paradigma jamiyatni barqarorlik va uzlusizlik nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi, ammo ijtimoiy tengsizlik va mojaro sabablarini kamroq o‘rganganligi sababli tanqidga uchraydi.

Metod va materiallar. Ushbu maqolada asosiy sotsiologik paradigmalarning nazariy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot davomida quyidagi metod va materiallardan foydalanildi:

Metodlar: Paradigmalarning asosiy tushunchalari va nazariy yondashuvlarini tahlil qilish. Sotsiologik nazariyalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.

Tarixiy yondashuv. Sotsiologik paradigmalarning rivojlanishi va tarixiy shakllanish bosqichlarini o‘rganish. Emile Dyurkgeym, Karl Marks va Jorj Herbert Mid kabi olimlarning ilmiy qarashlarini tadqiq qilish.

Solishtirma metod. Har bir paradigmning jamiyatni o‘rganishdagi yondashuvlari va ularning afzalliklarini taqqoslash. Paradigmalarning zamonaviy sotsiologik tadqiqotlardagi qo‘llanilish darajasini o‘rganish.

Materiallar: Ilmiy adabiyotlar va nazariy manbalar: Emile Dyurkgeymning "Sotsiologyaning asosiy qoidalari" asari.

Karl Marksning "Kapital" asari. Talcott Parsonsning "The Social System" kitobi. Giddensning "Sociology" asari.

Mazkur metodlar va materiallardan foydalanish asosida asosiy sotsiologik paradigmalarning nazariy asoslari, ularning tadqiqotdagi ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi yoritib berildi.

Muhokama va natijalar. Sotsiologik paradigmalarning nazariy jihatdan tahlil qilinishi jamiyatni tushunishda ularning ahamiyatini ko‘rsatdi. Har bir parigma o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lib, ijtimoiy hodisalar va muammolarni turli nuqtai nazaridan izohlash imkonini beradi.

Konflikt paradigmasi. Konflikt paradigmasi ijtimoiy hayotda mojarolar va tengsizlikni asosiy masala sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuv jamiyatni murakkab tuzilmalar yig‘indisi sifatida ko‘radi, bu tuzilmalar ichida kuch va resurslar uchun kurash sodir bo‘ladi.

Asosiy tushunchalar: Jamiyatda tenglik mavjud emas, ijtimoiy tabaqlanish ustunlik qiladi. Ijtimoiy sinflar (masalan, boylar va kambag‘allar) o‘rtasidagi ziddiyat jamiyatning rivojlanish omilidir.

Ilmiy asoslari: Karl Marks konflikt paradigmasing asoschisi hisoblanadi. U jamiyatni iqtisodiy tizim asosida tahlil qilib, kapitalizmda mehnatkash sinf (proletariat) va ishlab chiqarish vositalari egasi (burjuaziya) o‘rtasidagi kurashni tasvirlagan. Zamonaviy konflikt nazariyalari gender, irq va boshqa ijtimoiy tabaqlanish muammolarini ham qamrab oladi. Masalan, feminist nazariyalar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tengsizlikni o‘rganadi. Konflikt paradigmasi jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega.

Simvolik interaksionizm paradigmasi. Simvolik interaksionizm paradigmasi jamiyatni mikrodarajada – ya’ni odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va aloqa jarayonida shakllanishini o‘rganadi. Ushbu paradigma insonning ijtimoiy muhitni qanday idrok qilishi va unga moslashishini tahlil qiladi.

Asosiy tushunchalar: Ramzlar (so‘zlar, imo-ishoralar) ijtimoiy hayotning asosiy qismi hisoblanadi. Insonlar o‘zaro munosabatlar davomida ma’no yaratadilar va bu ma’no jamiyatni shakllantiradi.

Ilmiy asoslari. Jorj Herbert Mid va Erving Goffman ushbu paradigmasing asoschilarini hisoblanadi. Mid odamlarning o‘z xatti-harakatlarini boshqalarning munosabati orqali aniqlashini ta’kidlagan. Goffman esa “ijro nazariyasi”ni ilgari surib, ijtimoiy hayotni teatr sahnasiga qiyoslagan.

Bu paradigma jamiyatni kundalik hayot, o‘zaro muloqot va individual xatti-harakatlar nuqtai nazaridan o‘rganishda muhimdir.

Xulosa: Sotsiologik paradigmalarning har biri jamiyatni tushunishning o‘ziga xos nazariy usulini taklif etadi. Struktural funksionalizm jamiyatni tizimli va barqaror tuzilma sifatida ko‘radi. Bu yondashuv ijtimoiy institutlarning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi rolini yoritadi. Misol uchun, ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy birdamlikni shakllantiruvchi asosiy institut hisoblanadi. Shu bilan birga, funksionalizmning asosiy cheklovleri orasida jamiyatdagi o‘zgarishlar va tengsizlikni etarli darajada tahlil qilmasligi qayd etiladi.

Konflikt paradigmasi esa, aksincha, jamiyatdagi ijtimoiy sinflar, mojarolar va tengsizlikni aniqlashga qaratilgan.

Karl Marksning iqtisodiy tabaqalanishga asoslangan nazariyalari zamonaviy sotsiologiyada katta ahamiyat kasb etadi. Konflikt paradigmasi bugungi kunda gender tengsizligi, irqiy diskriminatsiya va boshqa dolzarb muammolarni tushunish uchun ham ishlataladi. Ammo bu yondashuvning cheklovlar sifatida jamiyatdagi barqarorlik va hamkorlikni tushuntirishga kam e'tibor berilishi ko'rsatiladi.

Simvolik interaksionizm paradigmasi jamiyatni mikrodarajada tahlil qiladi. Ushbu yondashuv odamlarning kundalik hayotda ramzlar va muloqot orqali qanday qilib jamiyatning ma'nosini yaratishini o'rghanadi. Misol uchun, odamlar o'rtasidagi so'zlashuv, imo-ishoralar va ramzlar orqali hosil bo'lgan munosabatlar jamiyatni shakllantiradi. Bu paradigma jamiyatni "quyi daraja"dan tushunish uchun samarali vosita hisoblanadi, biroq uning ijtimoiy tizimlarni kengroq miqyosda tahlil qilish imkoniyati cheklangan.

Umuman olganda, har bir sotsiologik paragma jamiyatni o'rghanishda o'ziga xos usul va imkoniyatlarni beradi. Shu sababli, sotsiologik tadqiqotlarda ushbu paradigmalarning birgalikda qo'llanilishi muhimdir. Struktural funksionalizm barqarorlikni, konflikt nazariyasi ijtimoiy o'zgarishlarni, simvolik interaksionizm esa kundalik hayotdagi muloqotlarni o'rghanishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar orqali sotsiologlar jamiyatning murakkab tizim sifatida rivojlanishiga oid keng qamrovli bilimlarga ega bo'ladilar. Paradigmalar zamonaviy jamiyat muammolarini aniqlash va ularga yechim topishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Dyurkgeym, E. Sotsiologyaning asosiy qoidalari.(32-33 betlar)
2. Marks, K.Kapital.
3. Parsons, T. (1951). The Social System.
4. Giddens, A. (1997). Sociology.
5. Mead, G. H. (1934). Mind, Self, and Society.
6. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life.